

AFAZIYANING TILSHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN O'RGANLISHI

Ne'matova Surayyo,
nsurayyo1812@gmail.com
ToshDO'TAU o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada afaziyaning tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilish masalalari tahlil qilinadi. Afaziya nutq faoliyatining buzilishi sifatida lingvistik birliklar — fonetik, leksik, morfologik va sintaktik qatlamlar doirasida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda afaziyaning neyrolingvistik asoslari, nutq ishlab chiqarish va nutqni idrok etish jarayonidagi o'zgarishlar hamda til tizimining turli darajalarida yuzaga keladigan buzilishlar ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, Paul Broca va Carl Wernicke tomonidan aniqlangan nutq markazlari bilan bog'liq afaziya turlari lingvistik jihatdan tavsiflanadi. Maqolada afaziyaning o'rganishda zamonaviy neyrolingvistika, psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik yondashuvlarining ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari afaziyaning tashxislash va reabilitatsiya jarayonlarida tilshunoslik yondashuvining muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Afaziya, neyrolingvistika, psixolingvistika, nutq buzilishi, Broka afaziyasi, Vernike afaziyasi, til tizimi, nutq faoliyati, lingvistik tahlil, kognitiv jarayonlar.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы изучения афазии с лингвистической точки зрения. Афазия рассматривается как нарушение речевой деятельности в рамках фонетического, лексического, морфологического и синтаксического уровней языка. В исследовании освещаются нейролингвистические основы афазии, изменения в процессах порождения и восприятия речи, а также нарушения, возникающие на различных уровнях языковой системы. Кроме того, с лингвистической позиции описываются виды афазии, связанные с речевыми центрами, выявленными Paul Broca и Carl Wernicke. В статье обосновывается значимость современных нейролингвистических, психоллингвистических и когнитивных подходов к изучению афазии. Результаты исследования подчеркивают важность лингвистического подхода в диагностике и реабилитации афазии.

Ключевые слова: Афазия, нейролингвистика, психоллингвистика, нарушение речи, афазия Брока, афазия Вернике, языковая система, речевая деятельность, лингвистический анализ, когнитивные процессы.

Abstract. This article analyzes the study of aphasia from a linguistic perspective. Aphasia is considered as a disorder of speech activity within the phonetic, lexical, morphological, and syntactic levels of language. The research highlights the neurolinguistic foundations of aphasia, changes in speech production and comprehension processes, and impairments occurring at different levels of the language system. In addition, types of aphasia associated with speech centers identified by Paul Broca and Carl Wernicke are described from a linguistic standpoint. The article substantiates the importance of modern neurolinguistic, psycholinguistic, and cognitive approaches in the study of aphasia. The findings emphasize the significance of a linguistic approach in the diagnosis and rehabilitation of aphasia.

Keywords: Aphasia, neurolinguistics, psycholinguistics, speech disorder, Broca's aphasia, Wernicke's aphasia, language system, speech activity, linguistic analysis, cognitive processes.


Kirish. Neyrolingvistika – yunoncha neuro-nerv, lingua-til degan ma'nolarni anglatib, tilning bosh miyada paydo bo'lishi va yuzaga chiqishini o'rganuvchi fandır. Nutq insonga xos faoliyat hisoblanadi va uning yordamida muloqot amalga oshiriladi. Nutq murakkab jarayon hisoblanib, uning vazifasi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va uzatishdan iboratdir. Bu vazifalarning barchasiga esa bosh miya javobgardir va nutq markazlari bosh miyaning turli sohlarida joylashgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bu sohaning keng o'rganilgan obykti sifatida esa afziyani e'tirof etishimiz lozimdir. Afzaiya – til o'zlashtirilgach, orttirilgan jarohatlar tufayli nutqda paydo bo'luvchi lisoniy buzilishdir. Afaziya nutq buzilishi sifatida insoniyatni asrlar davomida qiziqtirib kelgan. Biz afaziya haqidagi dastlabki ma'lumotni Edmit Smith papirusi orqali bilishimiz mumkin.

Olimlar tomonidan mil. avv. 3500-yillarda yaratilgan deya ta'riflangan bu paipursni 1867-yilda Edmit Smit misrlik Mustafa og'adan xarid qiladi. U o'ziga zamondosh bo'lgan boshqa papiruslardan ratsional va ilmiyligi bilan ajralib turgan. Unda 48 ta jarohat va uning da'vo choralari haqida ma'lumotlar kelgan. Miyadagi jarohatlar qolgan a'zolarining ishdan chiqishiga olib kelgan degan qarash bo'lgan. Xudolar bemor miyasiga puflagan va shuning natijasida "qayg'uli sukunat" boshlanadi, uning davosi sifatida esa bosh miyani teshib naycha o'rnatgan xolda Xudolar nafasini chiqarib tashlash lozim bo'lgan.

XIX asrgacha bo'lgan davrda faqat taxminlar va intuitiv fikrlar asosida xulosalar qilindi. Ular orasida Galen, Jon Gesner va Gyotelar ham bor edi. Shoir va yozuvchilar miya va til aloqasi haqida adabiy yondashilgan taxminlar berishgan edi.

Natijalar va muhokama. Fransuz olimi Paul Broka(1824-1890) neyrolingvistika tarixida ilk ilmiy isbotlab berilgan nazariya asoschisi edi. Uning oldiga kelgan bemorlardan biri(Leborgne) har qanday savolga "tan...tan...tan" deya javob qaytargan. Bir haftadan so'ng 57 yoshida bemor vafot etadi va bosh miya qismi ochib qaralganda frontal qismdagi uchinchi burmacha (gyrus) va ikkinchi burmachaning bir qismi shikastlangani ma'lum bo'ladi. Bu esa oldindan mavjud bo'lgan Brokaning lokalizatsiya va nutq haqidagi gipotezasini tasdiqlaydi.




Broka sohasi. Foto: flintrehab.com

Dastlab Broka kasallikni 3 qismga bo'ladi. Janob Tandan so'ng ham ko'plab shunday bemorlarni tekshiradi va keyinchalik shu soha fanda "Broka sohasi" nomi bilan qoladi. 1861- va 1865- yillar davomida bir nechta afaziya(sindrom sifatida "afema" deb atagan) mavzusida maqolalar chiqardi, ammo 1865-yilda chiqargan ishida tilshunoslik jihatdan ham izohlar bergan. Dastlab bu g'ayritabiiy holatni nevrologiya uchun kata

ahamiyatli bo'lgani uchun tahlillarda shu jihatga urg'u berilgan edi. Ammo keyinchalik til jihatdan ham tahlil qilindi. Bunda ikkita qismga ajratildi: kommunikativ holat aralashmagandagi nutqiy ko'nikmalar va kommunikatsiya jarayonidagi nutqiy ko'nikmalar. Broka Leborgneda unga gapirganda yuzida har xil emotsiyalar paydo qilgani uchun reseptiv jihatdan muammo bo'lmasa kerak degan tahminga keladi. Uning muammosi faqatgina "yetkazib berish"da edi. Uzoq olib berilgan tadqiqotlardan so'ng til uchun miyaning chap yarimshari javobgar, chap yarimshar o'ngidan oldinroq rivojlanadi va shuning uchun ham yozish o'ng qo'lda shakllanadi asosan. (Chap yarimshar o'ng taraf uchun, o'ng yarimshar esa chap taraf uchun javob beradi). Chapaqaylar bundan mustasno. Broka tajribalari davomida buni tasdiqlash uchun 8 ta bemorni misol qiladi: bir xil nutq buzilishi, bir xil joydagi jarohat. Uning ta'biricha bu tasodif bo'lishi mumkin emas edi. Ammo yillar davomida autopiya (o'lim sababini yo kasallik darajasini aniqlash uchun o'limdan keyin o'tkaziladigan tekshiruv) frontal 3-burmachada jarohat bo'lishiga qaramay nutqida buzilish yuzaga kelmagan kasallar ham uchradi va bu "data rich and theory poor" (boy ma'lumotlar va kuchsiz nazariya) degan qarashlarni shakllantira boradi. 1874-yilda nemis olimi Karl Vernike(1848-1905) Fransiya-Prussiya urushidan qaytgach, to'plagan tajribalari asosida "Der Aphasische Symptomencomplex" ("Afaziya simptomlari") maqolasini e'lon qiladi. Unda afaziyaning turli simptomlari, tilning miyada qay yo'sinda paydo bo'lishi va kutuvlarini yoritadi. Bu maqola 19-asr uchun 3 ta muhim yangilik bera oldi: afaziya simptomlarining yangi turlari, turli xil nuqtalardagi jarohatlarning har biri qanday natijalarga olib kelishi, til ko'nikmalarining miyada aynan bir nuqtada joylashmagani, ya'ni til ko'nikmalariga miyaning turli nuqtalari javobgarligi. Va normal nutq shakli bir necha bosqichli integratsion jarayonni o'z ichiga oladi. Bu izlanishi fanning bu tarmog'i uchun haqiqiy yangilik edi va bundan hozirgi kungacha foydalanib kelinmoqda. Unda 9 ta misol orqali afaziyaning turli ko'rinishlari yoritiladi va 2 tasi maqola uchun asos vazifasini bajaradi. Bu ikki bemordagi simptomlar Brokanikidan tubdan farq qilardi. Chunki Broka bemorlariga qaratilgan nutqni ular tushunardi va bu ularning imo-ishora va yuz ifodasida namoyon bo'lardi, shunchaki gapira olishmasdi xolos. Vernikedada esa holat boshqacha edi, uning bemorlari deyarli to'liq gapirardi, ammo ularda semantik tizim bilan muammo bor edi. Dastlab ikkinchi bemor haqida qulog'ida muammo bor, eshitish qobiliyatini yo'qotgan deya taxmin qiladi, ammo taxminlar o'zini oqlamadi. Ular juda chiroyli va ravon, intonatsiya bilan gapirishardi, ammo nima deyayotganligini anglashmaganday tuyulardi. Vernike aynan mana shuni, ya'ni so'zlarni talaffuz qilishdagi buzilishni emas, balki umumiy jamlanganda hosil bo'ladigan ma'nodagi buzilishni tasvirlaydi. Ularning nutqi ritmik va ba'zi semantik assotsatsiyalar ustiga qurilgan edi, ammo mavzuga aloqador emas, ya'ni kasalga savol berilganda uning nutqi talaffuz jihatdan ravon, qayerlaridir savolga aloqadoray tuyuladi. Ular talaffuz qilayotgan ayrim so'zlar hatto nemis tilida uchramas edi va bu tilning hech bir so'z qurilishiga mos tushmas edi. Buning natijasida Vernike va boshqa tadqiqotchilar ularning nima

deyayotganini tushunmay qoldi. Bemorlardan biri vafot etib, autopsiya boshlanganda shu ma'lum bo'ldiki, chakka qismdagi birinchi burmacha(first temporal gyrus on the left) va ikkinchi burmachaning bir qismi jarohatlangan edi. Natijada Vernike 2 ta jihatga alohida e'tibor qaratdi. Birinchidan, bu qism korteksga juda yaqin va matn audial kirishda talamus(miya ustini qoplagan kulrang modda)dan so'ng aynan shu sohaga yetib keladi. Ikkinchidan, bu maydon na motor, na sensor maydon bo'la oldi, Venrike bunda qandaydir sensor va motor maydonlarning "asotsatsiya"sini ko'rdi. Bu qism eshitish korteksiga yaqin joylashgani uchun u og'zaki nutqni tushunishga javobgar maydon deya qaray boshladi.



Vernike sohasi. Foto: flintrehab.com

Ikkala bemordagi o'sha sohadagi jarohatlar tadqiqotchilar berayotgan savolni tushunmasligiga olib kelgan va bu retseptiv nutqda muammo borligini ko'rsatardi. Keyinchalik aynan shu maydon Vernike deb nom oldi va audial kirishga yaqin joylashgan og'zaki nutq orqali qabul qilingan so'zlar uchun xotira vazifasini bajarishi aniqlandi. Vernike bu maydonni miyadagi 2-til maydoni sifatida qabul qilishni taklif etadi, chunki Broka maydoni birinchisi hisoblanardi. Ammo vernikedagi Broka maydoni to'raligicha ekspressiv nutqqa javob berishi borasida shubhalar paydo bo'la boshlaydi. Bu esa keyinchalik Lichtheim tasnifi uchun asos bo'ladi. U o'z tasnifida Broka, Vernike afaziyali bilan bir qatorda konduktiv va transkortik sensorli afaziya turlarini ham berib o'tadi.

Ular bilan bir davrda yashagan Zigmund Freyd ham nutq va miya orasidagi munosabatlar haqida o'z fikrlarini bildiradi va "On Aphasia" asarida neyropsixiologik jihatdan til va miya aloqasini yoritib beradi. Uning ham lokalizatsiya haqidagi qarashlari Broka va Vernike bilan yaqin bo'lgan, ammo u lokalizatsiya haqidagi qarashlarga qarshi chiqadi. Bu sohada o'z bilimlarini batafsil "The Unconscious" ("behush") asarida bayon etib, narsalar a ularning nomlari orasidagi aloqa, va til o'zlashtirish jarayonini davrlarga ajratib bosqichlab beradi. Oradan yillar o'tib Marshall, undan so'ng Hugh Bukingham

Freydni birnchi nneyrogrammatik neyrologist sifatida ko'rishlari haqida tezislar yozishadi.

Neyrolingvistikada alohida o'rin tutadigan keying olim bu Aleksandr Romanovich Luriya hisoblanadi. U yillar davomida Moskvadagi relitablitsiya markazida ishlab, ko'plab tadqiqotlar olib brogan. Fanga salmoqli yangiliklar taqdim qila olgan. U afaziyaning quyidagi turlarini o'rgangan:

Sensor afaziya - nutqni tushunmaslikdir, bemor o'zining ham, birovning ham nutqiga tushunmaydi. Chap yarimsharning yuqori chakka pushtasining orqa qismizararlanganligi, fonematik eshitib tushunishdagi buzilishga olib keladi. Tovushlarning akustik analiz-sintezi buziladi. Nutq intonatsiyasi saqlnagna bo'ladi, agrammatizm, logoreya, literal va verbal parafaziyalar yuzaga chiqadi.

Amnestik afaziya – sensorli afaziyadan farqli o'laroq, narsaning nomi unutiladi. Bemorga biror narsa ko'rsatilsa, uni tasvirlay oladi ammo nomini aytolmaydi. Masalan, ananas surati ko'rsatilganda, bir bemor uni yoqtirmasligini, yangi yilda dasturxonga qo'yilishini, bolalari olib kelishi aytgan bir necha daqiqalik qiynalishlardan so'ng tadqiqotchi yordamida ananas so'zini talaffuz qilgan.

Semantik afaziya – so'zlarning o'zaro moslashishi, gapning shaxs va sonda mos bo'lishidagi buzilish, ya'ni konstruksiyaning buzilishidir. Audial tushunish va artikulyatsiyada deyarli muammolar bo'lmaydi. Ammo murakkab informatsiyalarni ajratolmaydi. Masalan, it mushukni quvyapti va mushuklar itni quvyapti misollarini rasmda farqlab berolmaydi.

Motor afaziya – nutqni nisbatan tushunib, ammo ifodalab berishda qiynalishdir. Uning ikki turi qayd etilgan:

Afferent motor afaziya-tovushlarni talaffuz qilish qobiliyating yo'qolishidir. Artikulyatsion apparatdan keluvchi impulslarni qabul qiladigan pastki parietal pushtada joylashgan markazlar yuqori chakka pushtasidagi sensor nutq markazlari bilan assotsiativ yo'llar orqali bog'llangan. Bu turdagi afaziyada pastki parietal soha zararlanadi.

Efferent motor afaziya- bemor bir so'zdan ikkinchi so'zga o'ta olmaydi. Masalan, bemor 1 dan 10gacha sanashi mumkin, ammo 10 dan birga qarab sanay olmaydi. Quyida beriladigan A1 bemorda ham shu turni ko'rishimiz mumkin. U 19 yil deyoymasdan 1dan 19 gacha san chiqadi.

Dinamik afaziya-sensor va motor mexanizmlar saqlanib qolishiga qaramay gapirish qobiliyating yo'qolishi yoki susayib ketishidir. Bunda ichki nutq juda past va fikrni ifodalab berishga xohish bo'lmaydi. Bemorlarda baribir

O'zbek tilshunosligida bu sohani o'rganish yaqin yillarda boshlangan. Shu o'rinda Iroda Azimova bu sohani boshlab bergan va hozirgi kunda ham ish olib borayotgan olim sanaladi, Saodat Isroilova, Sarvinoz To'xtayevalar, Nargiza Sayidrahimovalar o'z ishlari bilan fan rivoji uchun kata hissa qo'shib kelmoqdalar. Olib borilgan ishlarning ko'p qismi o'zbek tilidagi Broka afaziyasini o'rganishga qaratilgan.

I. Azimova tajriba jarayonida bemorlar nutqini sog'lom insonlar nutqi bilan solishtirishadi. Muammolar doirasi asosan morfologiyani qamrab olgan. Unda gap qo'lanilishi, ko'makchi fe'llardan foydalanish, fe'l zamonlari, otlar, otlar va fe'llar birikivi muammolari o'rganilgan. Tajribalar 2 xil usulda olib borilgan bo'lib, bemorlar va sog'lom insonlar nutqi spontan shaklda tajribaga torilgan yoki maxsus testlar o'tkazilgan. Jahon tajribasida sinovdan o'tkan testlar va gipotezlar o'zbek tilida tekshirib ko'riladi va xulosalar solishtiriladi.

Xulosa. Fe'llar doirasida o'tkazilgan tajribalar fe'l zamonlari jahon tajribasida o'tkazilgan tajribalar bilan mos emasligini ko'rish mumkin. Ingliz tilida o'tkazilgan tajribalarda bemorlar nutqida fe'llar sog'lomlar nutqiga nisbatan kam qo'llanganini aytsa, bu tajribada bemorlar va sog'lar nutqidagi fe'llar sonida farq ko'rinmagan. Agrammatiklar nutqida kelishik shakllarining tushib qolishi gapning xato shakllanishiga olib kelgan va ular tuzgan gaplar qisqa va soddaligi ta'kidlangan. Bu esa neyrologistikadagi afaziyada nutq jarayonidagi yetishmovchiliklar bilan izohlanadi. "Agrammatik ishtirokchilarning to'g'ri shakllangan gaplari asosan ega+kesim, to'ldiruvchi+kesim, hol+kesim, ega+to'ldiruvchi+kesim, hol+to'ldiruvchi+kesim qolipida. Aniqlovchidan esa juda kam foydalanilgan",-deya ta'kidlanadi maqolada. Biz bilamizki, fe'llar talabiga ko'ra otlar kelishik qo'shimchasini oladi. Agrammatiklar nutqida kelishik shakllarining tushib qolishi gapning xato shakllanishiga olib kelgan. va ular tuzgan gaplar qisqa va soddaligi ta'kidlangan. Bu esa neyrologistikadagi afaziyada nutq jarayonidagi yetishmovchiliklar bilan izohlanadi. "Agrammatik ishtirokchilarning to'g'ri shakllangan gaplari asosan ega+kesim, to'ldiruvchi+kesim, hol+kesim, ega+to'ldiruvchi+kesim, hol+to'ldiruvchi+kesim qolipida. Aniqlovchidan esa juda kam foydalanilgan",-deya ta'kidlanadi maqolada. Fe'l shakllaridan esa harakat nomi izdan chiqmagan, ammo u bilan keluvchi bog'lamada izdan chiqishni ko'rish mumkin. Sifatdosh va ravishdosh shakllarida buzilish kuzatilgan, muallif sifatdoshda semantic va grammatik yuklama ko'pligi, ravishdosh esa boshqa fe'l bilan bog'lanishi kerakligi ularda buzilish bo'lgan deb izohlaydi. Test asosida o'tkazgan tajribalar fe'l zamonlarining ifodalanishiga qaratilib, Abtiansi va Dragoy gipotezasi asosida tekshiriladi. Boshqa tillarda o'tkazilgan natijalar o'zbek tilida ham o'zini oqlaydi, ya'ni boshqa tillarda olingan xulosalar beradigan gipoteza o'zbek tilida ham ishlaganini ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. David Caplan-Neurolinguistics and Linguistic Aphasiology: An Introduction. Cambridge Univ. Press. 1985.
3. Veno Volenec: Kratka povijest neurologistikike Rasprave 41/2 (2015.), str. 377-391
4. David Caplan-Neurolinguistics and Linguistic Aphasiology: An Introduction. Cambridge Univ. Press. 1985.
5. Азимова Ирода –Ў збек тилидаги аграмматик спонтан нутқда гапларнинг қўлланиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2019 №5. 94-98